

FITRAT IJODIDA SHARQONA ODOB-AXLOQ VA OILAVIY
MUNOSABATLAR TALQINI

Qosimova Mehrinoz Shokir qizi

Buxoro davlat universiteti magistranti

+998 91 246 04 66 Email: mehrinozqosimova1993@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat ijodida sharqona odo-axloq va oilaviy munosabatlar masalalarining badiiy hamda pedagogik talqini tahlil qilinadi. Adibning "Oila" asari va boshqa ilmiy-publistsistik merosi asosida oilaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ota-ona mas'uliyati, farzand tarbiyasi, er-xotin o'rtasidagi hurmat va ma'naviy muhitning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Fitrat qarashlarida milliy qadriyatlar, sharqona tarbiya an'analari va ma'rifatparvarlik g'oyalarining uyg'unligi ochib beriladi. Maqolada adibning axloqiy qarashlari yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyalash, oilada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish hamda milliy tarbiya tizimini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati ilmiy asosda bayon etiladi. Tadqiqot natijasida Fitrat ijodi bugungi kunda ham oilaviy tarbiya, ma'naviyat va axloqiy kamolot masalalarini o'rganishda muhim manba ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, ma'rifat, oila, tarbiya, sharqona axloq, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, pedagogik qarashlar, axloqiy tarbiya, komil inson.

INTERPRETATION OF EASTERN ETHICS AND FAMILY RELATIONS IN
FITRAT'S WORKS

Kosimova Mekhrinoz Shokir kizi

Master's student at Bukhara State University

+998 91 246 04 66 Email: mehrinozqosimova1993@gmail.com

Annotation: This article analyzes the artistic and pedagogical interpretation of Eastern ethics and family relations in the works of the Jadid enlightener Abdurauf Fitrat. Based on the author's work "Family" and other scientific and journalistic heritage, the role of the family in the development of society, parental responsibility, child upbringing, respect between spouses and the importance of the spiritual environment are highlighted. Additionally, Fitrat's views reveal the harmony of national values, Eastern educational traditions, and enlightenment ideas. The article scientifically substantiates the pedagogical significance of the author's moral views in educating the younger generation in the spirit of a perfect person, forming a healthy spiritual environment in the family, and developing the national education system. As a result of the study, it is based on the fact that Fitrat's work is an important source in the study of family upbringing, spirituality and moral perfection.

Keywords: *Jadidism, enlightenment, family, upbringing, Eastern ethics, national values, spirituality, pedagogical views, moral education, a perfect person.*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВОСТОЧНОГО ПРАВСТВА И СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ ФИТРАТА

Косимова Мехриноз Шокир кизи

Магистрант Бухарского государственного университета

+998 91 246 04 66 Email: mehrinozqosimova1993@gmail.com

Аннотация: *В данной статье анализируется художественная и педагогическая интерпретация вопросов восточного этикета и семейных отношений в творчестве джадидского просветителя Абдурауфа Фитрата. На основе произведения писателя "Семья" и другого научно-публицистического наследия освещается роль семьи в развитии общества, ответственность родителей, воспитание детей, уважение между супругами и значение духовной среды. Также в взглядах Фитрата раскрывается гармония национальных ценностей, восточных традиций воспитания и просветительских идей. В статье на научной основе излагается педагогическое значение нравственных взглядов писателя в воспитании молодого поколения в духе совершенного человека, формировании здоровой духовной среды в семье и развитии национальной системы воспитания. В результате исследования обосновано, что творчество Фитрата и сегодня является важным источником в изучении вопросов семейного воспитания, духовности и нравственного совершенства.*

Ключевые слова: *Джадидизм, просвещение, семья, воспитание, восточная этика, национальные ценности, духовность, педагогические взгляды, нравственное воспитание, совершенный человек.*

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan tub o'zgarishlar milliy uyg'onish harakatining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, jadidchilik harakati xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, ilm-ma'rifatni rivojlantirish hamda milliy taraqqiyotga erishishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ydi. Mazkur harakat vakillari orasida Abdurauf Fitrat alohida o'rin egallaydi. U nafaqat adib va dramaturg, balki yirik pedagog, ma'rifatparvar va jamiyat taraqqiyoti uchun kurashgan mutafakkir sifatida ham tarixda muhim iz qoldirgan. Fitrat o'z asarlarida millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm, tarbiya va ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Fitratning "Oila" asari jadid adabiyoti va pedagogik tafakkurining muhim namunalaridan biri bo'lib, unda oilaning jamiyat hayotidagi o'rni, farzand tarbiyasining mohiyati, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning inson kamolotidagi ahamiyati chuqur yoritilgan. Asarda sharqona tarbiya modeli asosida insonni barkamol qilib voyaga yetkazish g'oyalari ilgari suriladi. Muallif oilani inson tarbiyasining birlamchi va eng muhim maskani sifatida talqin qilib, undagi sog'lom ma'naviy

muhit jamiyat taraqqiyotining poydevori ekanligini ilmiy-publitsistik ruhda asoslaydi. Shu jihatdan "Oila" asari o'z davrining ijtimoiy muammolarini aks ettiruvchi, milliy ong va ma'rifatni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim manba hisoblanadi. Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlarni asrash hamda ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalalari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatda oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi, ma'naviy tahdidlarning kuchayishi yosh avlod tarbiyasiga yangicha yondashuvlarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, Fitratning "Oila" asaridagi sharqona tarbiya modeli va pedagogik qarashlarini ilmiy jihatdan o'rganish muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Asarda ilgari surilgan g'oyalar bugungi ta'lim tizimida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Abdurauf Fitratning ma'naviy axloqiy merosi, barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rniga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, jahonda Abdurauf Fitrat shaxsi, ilmiy-ijodiy faoliyati, ma'naviy merosi A.Xolid, E.Olvort, I.Baldauf, E.Lazzerini, A.Benningson, H.Komatsu, I.Yolqin, T.Kosaoglu, Y.Avji, E.Nabi kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. O'zbekistonda taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o'rni va ta'sirini tarixiy nuqtayi nazardan o'rganish D.Alimova, Q.Rajabov, D.Ziyayeva, D.Jamolovalar tomonidan, adabiy merosining o'ziga xos xususiyatlari B.Qosimov, O.Sharafiddinov, H.Boltaboyev, I.G'aniyev tomonidan, shuningdek, Abdurauf Fitratning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari G.N.Navro'zova, R.T.Shodiyev, Q.Shodmonov, Q.N. Nazarov, M.N.Melikova, J.Yaxshilikov, S.Ahmedov, U.Dolimov, E.Yusupov, M.Raximova, D.Tog'ayevalar⁴ tomonidan tadqiq etilgan.

Mazkur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning zamonaviy metodologik yondashuvlari hamda pedagogik-tahliliy usullardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini Abdurauf Fitratning ma'rifatparvarlik va pedagogik qarashlari, sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi ilmiy-falsafiy konsepsiyalari hamda zamonaviy pedagogika fanining nazariy tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot davomida avvalo tarixiylik va izchillik tamoyiliga asoslanib, Fitrat yashab ijod qilgan davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhiti o'rganildi. Bu usul orqali jadidchilik harakatining mohiyati, uning milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni hamda "Oila" asarining yaratilishiga ta'sir etgan omillar ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Asardagi tarbiyaviy qarashlarning shakllanishida Turkiston jadidchilik muhiti va sharqona ma'naviy qadriyatlarning ta'siri aniqlashtirildi. Maqolada qiyosiy-tahliliy metod ham muhim o'rin egalladi. Ushbu metod yordamida Fitratning oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari Sharq mutafakkirlari, xususan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiylarning pedagogik qarashlari bilan qiyoslandi. Natijada sharqona tarbiya modelining uzviyligi, ma'naviy-axloqiy tamoyillarning davomiyligi hamda Fitrat pedagogikasining o'ziga xos jihatlari ochib berildi. Shuningdek, tadqiqotda matnshunoslik va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. "Oila" asaridagi tarbiya, ma'naviyat, axloq, ota-ona mas'uliyati, farzand kamoloti kabi tushunchalar mazmunan tahlil qilinib, ularning pedagogik mohiyati

yoritildi. Asardagi fikr va g'oyalar tizimli ravishda o'rganilib, ularning bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq jihatlari aniqlashtirildi.

Natijalar va muhokama. Sharq va G'arb olimlarining ko'plab ilmiy tadqiqotlari bilan tanishib chiqish jarayonida Fitrat oila to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlab, o'z davri uchun mukammal yo'riqnomani dunyoga keltirgani ta'kidlangan. Uning sarmashaqqat izlanishlari samarasi bo'lgan "Oila" risolasi oilaning jamiyat va inson hayotidagi rolini oshirishga, oila a'zolarining huquqiy-axloqiy me'yorlarini belgilashga qaratilgandir. Fitratning fikricha, agar oilada tartib-intizom bo'lsa, uning a'zolari shu xislatlarini ijtimoiy hayotlarida qo'llaydilar [1; 228]. Bu esa, ularning o'z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo'ladi. Oilaning odob-axloq, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik tamoyillari asosida qurilgan bo'lishi insonlar o'rtasidagi munosabat va muloqotlarda o'ta muhim va shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Oila uch muhim omil: er, xotin va farzandlardan iborat. Ana shu uch omilning har biri o'ta noziknozik, o'ziga xos jihatlarga ega. Chunonchi, er va xotin uchun uylanish (turmushga chiqish) asosiy muammo bo'lishi bilan birga yagona hisoblangan muhim qirralarga ham ega. Alloma oila qurish borasida: "Uylanish bir erkak va bir ayolning ittifoqidir. Alalxusus, muhabbat va mehr bilan hayotda sherik bo'lish demakdir. Er-xotin mushkulotdan iborat bo'lgan hayot safarida birga bo'lib, jismoniy va ruhiy osoyishtalikka sherik, insoniy vazifalarni bajarishda dastyor, qayg'u va umidsizlik damlarida g'amxo'r, saodat va baxtiyorlik chog'ida bir-birlariga hamdam bo'lishlari lozim"[1] – degan fikrni ilgari suradi.

Fitrat o'zining "Najot yo'li" asarida oila vazifasi, badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, axloq tarbiyasi haqida yozgani, bu fikrlarini "Oila" asarida yanada kengaytirib bayon etgani asoslab berilgan. Har ikkala asarda ham mamlakat taraqqiyotining davomchilari bo'lgan yoshlar birinchi navbatda ta'lim va tarbiyani oilada olishlari keng va har tomonlama yoritilgan. Fitrat "Oila" asarining bir bobini "Qizlar ham ilm olishi kerakmi?" deb nomlaydi. Fitratning bu masalani ko'tarishiga sabab: "Farzandlarning kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishlari, ularga onalari qanday tarbiya berganliklariga bog'liq bo'ladi", - deb ko'rsatadi. Asarning mazkur bobida nafaqat o'z zamonasi uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan shunday ilg'or fikrlar bor: "Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni ular iymonli, fidokor, g'ayratli bo'lib ulg'aysinlar. Bu matlabga erishish uchun millat onalari tarbiya va ilm olishlari, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari lozim. Aks holatda xotinlarimiz erkaklardan ko'ra qo'rqqoqroq, zaifroq va g'ayratsiz bo'lganlaridan, bolalarimiz ham ularga o'xshab ketadilar"[1; 98]. Asarning ikkinchi qismida Fitrat bolaning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishida axloqiy tarbiyaning o'rni juda katta ekanligi va bunda avvalo ota-ona va muallimlarning o'zlari ham go'zal axloqli bo'lishlari zarurligini ta'kidlaydi. Ota-ona o'z farzandlari tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishlari uchun ular avvalo, farzand tarbiyasi haqida muayyan bilimga ega bo'lishlari kerak. Ularning har ikkisi o'z vazifasini, ota-onalik burchini mukammal ado etishlari, toki ular "Farzandni jisman, aqlan va axloqan kamolga yetishtirib, hayot maydoniga kuchli, aqlli va yaxshi axloq bilan chiqarishi zarur"[1;54].

Fitratning sharqona axloq kodeksi, ya'ni, axloqiy tarbiya konsepsiyasi, yoshlarni har tomonlama kamolotga erishtirish yo'llari to'g'risidadir. Fitrat asarlarining deyarli barchasida aynan shu masala markaziy o'rinni egallaydi. Ma'naviy hayot sohalari va ularda ro'y beradigan voqea-hodisalarning bir-biri bilan uzviy bog'liq holda va o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'lishi ushbu sohaning muhim qonunlaridan biridir. Bu jihatdan, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida jadidlar merosiga nisbatan munosabatning yangi bosqichga ko'tarilayotganini ma'naviy hayotda ro'y berayotgan yangilanishlar jarayonidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi[6;16]. Asar tahlili davomida Fitratning pedagogik qarashlari jadidchilik harakatining asosiy maqsadlari bilan uzviy bog'liqligi aniqlandi. Muallif oilani milliy uyg'onishning boshlang'ich nuqtasi sifatida ko'rib, yosh avlodni ilmi, tafakkuri keng va ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalashga alohida urg'u beradi. Ayniqsa, asarda ayolning oiladagi o'rni va onaning tarbiyadagi mas'uliyati masalasiga katta e'tibor qaratilgani kuzatildi. Bu esa Fitratning o'z davri uchun ilg'or pedagogik qarashlarni ilgari surganligini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning "Oila" asari sharqona tarbiya modelining muhim nazariy va amaliy asoslarini o'zida mujassam etgan ma'rifiy asarlardan biri hisoblanadi. Asarda oila jamiyatning tayanchi, farzand tarbiyasi esa millat kelajagini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Fitrat yosh avlodni ma'naviy yetuk, axloqan pok, ilmi va vatanparvar inson qilib voyaga yetkazishda oilaning o'rnini alohida ta'kidlaydi. Asarda ilgari surilgan tarbiyaviy qarashlar bugungi pedagogik jarayon bilan hamohang bo'lib, unda milliy qadriyatlar, sharqona odob-axloq, ota-ona mas'uliyati hamda ma'rifatparvarlik g'oyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Muallif oiladagi sog'lom muhit va to'g'ri tarbiyani jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida baholaydi. Shu jihatdan "Oila" asari nafaqat badiiy-adabiy, balki pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim manba sifatida qadrlanadi. Fitratning tarbiyaga oid qarashlari hozirgi davr yoshlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

- 1) Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. / Tanlangan asarlar. IV jild. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2006. - B.214
- 2) Болтабоев Ҳ. Хорижий фитратшуносликдан лавҳалар / Фитрат ва жади́дчи́лик. Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. - Б. 225-273.
- 3) Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фанлари долтори дисс. Тошкент, 1996. 33-В.
- 4) Наврўзова Г.Н., Абдурауф Фитратнинг "Оила" асарининг бугунги кундаги аҳамияти // Фалсафа ва ҳуқуқ фанларининг долзарб масалалари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 1-китоб. Т.-2010. –Б. 54-56.
- 5) Қосимов Б. Маслакдошлар: Бехбудий, Ажзий, Фитрат. Тошкент: Шарқ НМК, 1994. Б. 74

- 6) Raxmonova M. A. Abdurauf Fitratning ma'naviy-axloqiy qarashlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni 09.00.03 – falsafa tarixi falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro – 2024. 56-B.
- 7) Raximova M. “Abdurauf Fitratning axloqiy-falsafiy ta'limoti”. Diss. Avto. Samarqand – 2022. 56-B.
- 8) Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - T.: Universitet, 1998, 184-b.